YUQORI SINF O‘QUVCHILARIGA MO`LJALLANGAN TARBIYAVIY KONTENTLARINING METODOLOGIK MUAMMOLARI

Sherzod Jumanov
Oriental universiteti Samarqand kampusi “Uzluksiz ta`lim metodikasi” kafedrasi v.b. dotsenti
https://doi.org/10.5281/zenodo.23512763

Annotatsiya: *mazkur maqolada umumta`lim maktabi yuqori sinf o‘quvchilariga mo‘ljallangan tarbiyaviy kontentlarning metodologik muammolari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya muhitida tarbiyaviy kontentlarning mazmuni, shakli va taqdim etish usullariga qo‘yiladigan talablar tobora murakkablashib bormoqda. Maqolada tarbiyaviy kontent tushunchasining mohiyati, uning pedagogik-psixologik asoslari, yuqori sinf o‘quvchilarining yosh va psixofiziologik xususiyatlari, shuningdek, metodologik yondashuvlardagi ziddiyatlar va kamchiliklar tizimli ravishda yoritiladi. Tadqiqot natijasida tarbiyaviy kontentlarni ishlab chiqish va qo‘llashda metodologik izchillikni ta’minlash, kompetensiyaviy yondashuvni kuchaytirish, media-savodxonlikni oshirish hamda milliy-ma’naviy qadriyatlarga tayanish zarurati asoslanadi.*

Tayanch so‘z va iboralar: tarbiyaviy kontent, muammo, yuqori sinf o‘quvchilari, kompetensiyaviy yondashuv, media-savodxonlik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, pedagogik texnologiya, ma’naviy tarbiya, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, tizimli yondashuv, psixofiziologik xususiyat, tarbiyaviy ta’sir.

Аннотация: *в данной статье с научной и теоретической точки зрения анализируются методологические проблемы образовательного контента для старшеклассников. В современной информационно-коммуникационной среде требования к содержанию, форме и методам представления образовательного контента становятся все более сложными. В статье систематически рассматривается сущность понятия образовательного контента, его педагогические и психологические основы, возрастные и психофизиологические характеристики старшеклассников, а также противоречия и недостатки методологических подходов. Результаты исследования обосновывают необходимость обеспечения методологической согласованности в разработке и применении образовательного контента, усиления компетентностного подхода, повышения медиаграмотности и опоры на национальные и духовные ценности.*

Ключевые слова *и фразы: образовательный контент, проблема, старшеклассники, компетентностный подход, медиаграмотность, информационно-коммуникационные технологии, педагогические технологии, духовное воспитание, личностно-ориентированное образование, системный подход, психофизиологические характеристики, образовательное воздействие.*

Abstract: *this article presents a scientific-theoretical analysis of the methodological issues surrounding educational content designed for high school students. In the modern information and communication environment, the requirements regarding the content, form, and delivery methods of educational materials are becoming increasingly complex. The article systematically examines the essence of the concept of educational content, its pedagogical and psychological foundations, the age-related and psychophysiological characteristics of high school students, as well as contradictions and shortcomings in methodological approaches. The study substantiates the necessity of ensuring methodological consistency, strengthening the competency-based approach, enhancing media literacy, and grounding content in national spiritual values during the development and implementation of educational materials.*

Keywords *and phrases: educational content, problem, high school students, competency-based approach, media literacy, information and communication technologies, pedagogical technology, spiritual education, learner-centered education, systems approach, psychophysiological characteristic, educational impact.*

Bugungi kunda jamiyat hayotining barcha jabhalarida kechayotgan globallashuv va axborotlashtirish jarayonlari ta’lim-tarbiya tizimiga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, yuqori sinf o‘quvchilari — ya’ni 9–11-sinf o‘quvchilari — o‘zlarining psixofiziologik rivojlanishi, dunyoqarashining shakllanishi, ijtimoiy rollarni o‘zlashtirishi va kasbiy o‘zini anglashi jihatidan alohida e’tibor talab qiladigan muhim toifa hisoblanadi. Ushbu bosqichda ularga qaratilgan tarbiyaviy kontentlarning mazmuni, shakli, metodologik asoslari va taqdim etish mexanizmlari o‘zaro uyg‘un bo‘lishi lozim. Biroq amaliyotda bu borada bir qator metodologik muammolarga duch kelinmoqda.

Tarbiyaviy kontent deganda biz nafaqat darslik va qo‘llanmalar, balki multimedia materiallari, video-roliklar, interaktiv topshiriqlar, ijtimoiy tarmoqlardagi tarbiyaviy postlar, onlayn kurslar, treninglar va boshqa shakldagi ta’sir vositalarini ham tushunamiz. Ularning metodologik jihatdan to‘g‘ri ishlab chiqilmasligi tarbiyaviy ta’sir samaradorligini pasaytiradi, ba’zan esa salbiy natijalarga olib kelishi mumkin. Shu sababli yuqori sinf o‘quvchilariga mo`ljallangan tarbiyaviy kontentlarning mazmuni, shakli, tayyorlanishi va taqdim etilishi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tarbiyaviy kontent — bu shaxsning ma’naviy-axloqiy, intellektual, estetik, jismoniy va ijtimoiy rivojlanishiga yo‘naltirilgan, ma’lum pedagogik maqsad va vazifalarga ega bo‘lgan mazmuniy-ta’limiy materiallar majmuasidir. Uning metodologik asosini umumiy didaktika, tarbiya nazariyasi, yosh psixologiyasi va sotsiologiya fanlari tashkil etadi. Tarbiyaviy kontentning samaradorligi uning ilmiy asoslanganligi, tizimliligi, izchilligi, yoshga mosligi va amaliy yo‘naltirilganligi bilan belgilanadi.

Metodologik jihatdan umumta`lim maktabi yuqori sinf o`quvchilariga mo`ljallangan tarbiyaviy kontent uch bosqichda ko‘rib chiqiladi: birinchidan, maqsad va vazifalarni aniqlash; ikkinchidan, mazmunni tanlash va tizimlashtirish; uchinchidan, taqdim etish shakllari va usullarini tanlash. Bu bosqichlar bajarilishining har birida muayyan muammolar yuzaga keladi.

Yuqori sinf o‘quvchilari o‘smirlik va ilk o‘spirinlik davrini boshdan kechiradilar. Bu davrda mantiqiy tafakkur, tanqidiy fikrlash, o‘z-o‘zini anglash, qadriyatlarni qayta baholash jarayonlari faollashadi. Ular endi tayyor axborotni passiv qabul qiluvchi emas, balki uni tanqidiy tahlil qiluvchi, o‘z pozitsiyasini shakllantiruvchi subyektga aylanadilar[1].

Shu bois mutaxassis – pedagoglar tayyorlayotgan tarbiyaviy kontentlar:

o‘quvchining mustaqil fikrlashini rag‘batlantirishi;
muammoli vaziyatlar va munozaralarga asoslanishi;
real hayotiy misollar bilan boyitilishi;
hissiy-emotsional ta’sir kuchiga ega bo‘lishi;
o‘quvchining shaxsiy tajribasiga tayanilishi kabi talablarga mos bo`lishi lozim.

Aks holda, ya’ni faqat ma’ruza, nasihat yoki buyruq ohangidagi kontentlar o‘quvchilarda ichki qarshilik, loqaydlik yoki istehzo tuyg‘ularini paydo qiladi va bu esa kutilayotgan tarbiyaviy ta’sirning nolga tenglashishiga olib keladi.

Umumta`lim maktablarining yuqori sinf o‘quvchilariga mo`ljallangan tarbiyaviy kontentlarning metodologik muammolarini quyidagilarga ajratish mumkin:

— maqsad va vazifalarning noaniqligi. Ko‘plab tarbiyaviy kontentlar aniq pedagogik maqsadsiz yaratiladi. Natijada ular nima uchun, kimga va qanday natija uchun mo‘ljallanganligi noaniq bo‘lib qoladi. Maqsadning noaniqligi mazmunning tarqoqligiga, baholash mezonlarining yo‘qligiga olib keladi.

— tayyorlangan kontent mazmunining o`quvchi yoshiga mos emasligi. Ba’zi kontentlar o‘quvchining yosh xususiyatlariga to`g`ri kelmaydi: ular juda soddalashtirilgan yoki aksincha, haddan tashqari murakkab bo‘ladi. Bu holat o‘quvchining kontentga bo‘lgan qiziqishini susaytiradi.

— metodik xilma-xillikning yetishmasligi. Tarbiyaviy kontentlar ko‘pincha bir xil shaklda - matn yoki ma’ruza ko‘rinishida taqdim etiladi. Interaktiv metodlar, o‘yin texnologiyalari, loyiha ishlari, debatlar, keys-stadi kabilardan yetarli darajada foydalanilmaydi.

— mutaxassis-pedagog media-savodxonligining pastligi. Zamonaviy o‘quvchilar axborotni asosan internet va ijtimoiy tarmoqlardan oladilar. Biroq tarbiyaviy kontentlarning ko‘pchiligi media formatga moslashtirilmagan, vizual jihatdan jozibador emas, qisqa va ta’sirchan shaklda taqdim etilmaydi.

— milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligining buzilishi. Ba’zi kontentlarda milliy qadriyatlar ikkinchi darajali bo‘lib qoladi yoki aksincha, faqat milliy chegaralarga qarab qoladi. Bu esa o‘quvchining keng dunyoqarashini shakllantirishga to‘sqinlik qiladi.

— baholash va qayta aloqa tizimining yo‘qligi. Uzatilgan kontentning tarbiyaviy ta’sirini o‘lchash, o‘quvchining fikr-mulohazasini olish, natijalarni tahlil qilish mexanizmlari yetarli emas[2].

Ushbu muammolarning yuzaga kelishida bir qancha omillar sabab bo`ladi:

tarbiyaviy kontent yaratuvchilarning pedagogik-psixologik bilimlarining yetarli emasligi;

kontentni ishlab chiqishda ilmiy tadqiqotlarga emas, balki intuitiv yondashuvlarga tayanish;

zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarining yetarli emasligi;

tarbiya jarayonini monitoring qilish va baholash tizimining takomillashmaganligi;

o‘quvchi shaxsini o‘rganishga qaratilgan diagnostik tadqiqotlarning yetishmasligi;

o‘qituvchi, ota-ona va o‘quvchi o‘rtasidagi hamkorlikning yo`lga qo`yilmaganligi.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi yondashuvlarni taklif etish mumkin:

Tizimli yondashuv: tarbiyaviy kontent yaxlit tizim sifatida ishlab chiqilmog`i lozim: maqsad — mazmun — metod — vosita — natija — baholash zanjiri uzluksiz bo‘lishi kerak.

Kompetensiyaviy yondashuv: kontent nafaqat bilim berishi, balki o‘quvchida hayotiy ko‘nikmalar, ijtimoiy kompetensiyalar, emotsional intellektni shakllantirishga qaratilishi kerak.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv: har bir o‘quvchining individual xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlari va imkoniyatlari hisobga olinishi zarur.

Faoliyatli yondashuv: o‘quvchi kontentni passiv qabul qiluvchi emas, balki faol ishtirokchi, ijodkor va tahlilchi bo‘lishi kerak.

Media-pedagogik yondashuv: tarbiyaviy kontentlar zamonaviy media formatlariga moslashtirilishi, vizual, audio va interaktiv elementlar bilan boyitilishi lozim.

Qadriyatga yo‘naltirilgan yondashuv: kontent milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligiga asoslanishi, o‘quvchida ma’naviy immunitetni shakllantirishi kerak.

Refleksiv yondashuv: o‘quvchining o‘z fikr-mulohazalarini bildirishi, o‘zini baholashi va kontentga munosabat bildirishi uchun sharoit yaratilishi zarur.

Bizning fikrimizcha, tarbiyaviy kontentlarni ishlab chiqishda quyidagilarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir:

har bir kontent uchun aniq pedagogik maqsad va kutilayotgan natijani belgilash;

kontentni yaratishdan oldin o‘quvchilar o‘rtasida diagnostik so‘rov o‘tkazish;

turli formatlardagi (matn, video, audio, infografika, interaktiv test) materiallardan keng foydalanish;

kontentni sinf, maktab, mahalla va oila bilan bog‘liq real hayotiy vaziyatlar bilan boyitish;

o‘quvchilarni kontent yaratish jarayoniga jalb qilish;

kontentning ta’sirini muntazam monitoring qilish va baholash;

o‘qituvchilarni media-savodxonlik va raqamli pedagogika bo‘yicha ko`nikmalarini tizimli oshirib borish.

Yuqori sinf o‘quvchilari tarbiyaviy kontentlarining metodologik muammolari — bu zamonaviy ta’lim-tarbiya tizimining dolzarb va murakkab masalalaridan biridir. Ushbu muammolar maqsadning noaniqligi, mazmunning yoshga mos emasligi, metodik xilma-xillikning yetishmasligi, media-savodxonlikning pastligi, qadriyatlar uyg‘unligining buzilishi va baholash tizimining yo‘qligi kabi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi[3].

Ularni bartaraf etish uchun tarbiyaviy kontentlarni ishlab chiqishda tizimli, kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan, faoliyatli, media-pedagogik, qadriyatga yo‘naltirilgan va refleksiv yondashuvlarni uyg‘un qo‘llash zarur. Shundagina tarbiyaviy kontentlar yuqori sinf o‘quvchilarining shaxsiy rivojlanishiga samarali ta’sir ko‘rsatadi, ularning ma’naviy-axloqiy dunyoqarashini mustahkamlaydi va faol ijtimoiy hayotga tayyorlaydi.

Zero, tarbiya — kelajakni qurish demakdir. Yuqori sinf o‘quvchilariga qaratilgan har bir tarbiyaviy kontent ularning qalbida iz qoldiradigan, fikrlashiga turtki beradigan va hayotda o`z yo‘lini to‘g‘ri tanlashga yordam beradigan bo‘lishi lozim. Bu esa metodologik jihatdan puxta o‘ylangan, ilmiy asoslangan va amaliyotga yo‘naltirilgan kontentlarni yaratishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ibraimov X., Quronov M., Musurmonkulov O., Sh.Jumanov. Raqamli avlod tarbiyasi. Monografiya. – T.: “Ilm ziyo zakovat” nashriyoti-matbaa ijodiy uyi, 2025. –107 b.
2. Livingstone, S., Helsper, E. Risks and opportunities of social media for youth: Digital literacy approaches. Computers in Human Behavior, 2007.
3. Jumanov Sh.S. Raqamli avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik xususiyatlari. Fan va ta’lim integratsiyasi. Samarqand pedagogika institutining ilmiy jurnali. -Samarqand. 2025_3(2). 146-153-b.